



NOGIRON FARZANDI BOR OILALAR FAROVONLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI AHAMIYATI

Xamrakulova Maftunaxon Shuxratovna

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining nogiron farzandi bor oilalarning farovonligini diagnostika qilishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqotda sun'iy intellekt yordamida farovonlikni aniqlash, baholash va shaxsiylashtirilgan yordam ko'rsatish mexanizmlari tahlil qilinadi. Mazkur yondashuv nogiron farzandi bor oilalar ijtimoiy holatini yaxshilashda katta ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, nogironlik, farovonlik, diagnostika, ijtimoiy yordam, raqamli texnologiyalar.

Nogiron bolalar – bu jamiyatning to'laqonli va e'tiborga muhtoj a'zolaridir. Ularning sog'lom rivojlanishi, ta'lim olishi, jamiyatda o'z o'rnini topishi – ko'p jihatdan oila muhitiga, ota-onaning ruhiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashiga bog'liq. Oila nogiron bola uchun nafaqat birinchi ijtimoiy muhit, balki himoya, tarbiya, tushunish va sevgi manbaidir. Shu sababli, oilaning o'rnini bu jarayonda beqiyos ahamiyatga ega.

Nogiron bolaning tug'ilishi oilaviy hayotning butun jarayonini buzadi va oilaning farovonligi pasayishiga sabab bo'ladi. Nogiron bolasi bo'lgan oilalarni o'rganish oilalar muammolarining, farovonligiga ta'sir qiluvchi omillarni turli tomonlarini aniqlaydi. Nogiron farzandi bor oilalarni boshdan kechirilgan ruhiy zo'riqishning davomiyligi, bolaning kelajagi uchun tashvishlanishning kuchayishi oila farovonligini deformatsiyaga olib keladi. Farovonlik insonning ruhiy salomatligi va umuman hayotdan qoniqishning zaruriy shartidir. Oilaning farovonligi yoki yomon ahvolidan sabablari sifatida obyektiv



(moliyaviy ahvol, ish, kasb va boshqalar) va subyektiv farovonligini o'ziga xos determinantlari, omillari, komponentlarini aniqlash dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda [3]. Nogiron farzand tarbiyasi bilan band bo'lgan oilalar ko'p hollarda umumiy jamiyat rivojidan chetda qoladi. Ular ko'pincha: ijtimoiy xizmatlardan yetarlicha foydalana olmaydi, iqtisodiy jihatdan qiyin holatda yashaydi, psixologik bosim va stress ostida qoladi. Ushbu holatlarni aniqlab, ularni kamaytirish uchun farovonlikni oshirishda sun'iy intellektdan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Amerikalik tadqiqotchi Myurrey Boun (1913-1990)-AKD 1 da XX asrning boshlarida boshlangan oilani himoya qilish harakatining asoschilarida bo'lgan, ushbu harakatdan ko'zlangan maqsad oilani alohida tadqiqotlar obyektiga sifatida o'rganish va shu orqali oilaning inson salomatligidagi yaxshilanishida muhim ahamiyatga ega ekanligini, hattoki, ruhan bemor bo'lganlarni davolashda oilaning imkoniyatlaridan foydalanish g'oyasini targ'ib qilishdan iborat bo'lgan [2].

Subyektiv farovonlik - bu shaxsning kongnitiv, hissiy va xulq-atvor tarkibiy qismlarining birligi, shuningdek, jismoniy, ma'naviy, ijtimoiy, moddiy va psixologik elementlarni o'z ichiga oladi. Agar shaxs umuman ijtimoiy sohaning samarali ishlashidan, ma'lum bir ijtimoiy guruhdagi o'z roolidan, farovonlik darajasidan, yaxshi jismoniy va ruhiy farovonlikdan qoniqsa, inson hayoti farovon bo'ladi [1].

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)ning e'tirof etishicha, nogironligi bo'lgan insonlar mehnatga jalb etilishining pastligi, kasbiy ta'lim olish imkoniyatining deyarli yo'qligi, ishga qabul qilish va martaba yuksalishi borasida bir qator noxolisliklarga duch kelishlari keng tarqalgan. BMT Taraqqiyot dasturining yaqinda e'lon qilingan hisoboti shuni ko'rsatdiki, qishloq joylarda yashovchi nogironligi bo'lgan shaxslarning atigi 5,8 foizi ish bilan ta'minlangan. Bu omillar oilalarning farovonligini pasayishiga sabab bo'ladi.

Nogiron farzandi bor oilalarning farovonligini o'rganish – bu nafaqat ular uchun, balki jamiyatning o'zini rivojlantirish, inson salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarish va barqaror ijtimoiy tizim qurish uchun ham zaruriy masaladir. Ushbu oilalarni qo'llab-quvvatlashda to'g'ri diagnostika va ehtiyojga mos yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.



So'nggi yillarda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari bu jarayonlarda muhim rol o'ynay boshladi. Ushbu maqolada SI yordamida nogiron farzandi bor oilalarning farovonligini optimallashtirish mumkinligi tahlil qilinadi.

Dunyo aholisining taxminan 1 foizi, ya'ni 75 milliondan ortiq odam, hozirda autizm spektri buzilishi tashxisiga ega, bu neyroxilma-xillikning bir qismi sifatida tan olingan tez rivojlanayotgan muammo bo'lib hisoblanadi. Autizmi bor insonlarning 85 foizi ishsizligi sababli, SI yangi ish imkoniyatlarini yaratishda katta hissa qo'shishi mumkin. 2004-yilda tashkil etilgan Specialisterni xalqaro tashkiloti kadrlar qobiliyatlarini hisobga olgan va texnologiya salohiyatiga e'tibor qaratgan holda korxonalarga neyroxilma-xilligi bo'lgan insonlarga mos keladigan ish joylari topishda yordam berib kelmoqda. Xuddi shunday, Mentra startapi SI yordamida neyroxilma-xilligi bo'lgan insonlarni asosan dasturshunoslik bilan bog'liq sohalarda ish bilan ta'minlashda faoliyat ko'rsatmoqda.

SI texnologiyalari nogironlarga yordam berishda bir qator ijobiy natijalarni namoyon qilmoqda. Dunyo bo'ylab kamida bitta qulog'ida eshitish zaifligi bo'lgan 1,5 milliarddan ortiq insonlar uchun SI qurilmalari nutqni matnga o'girib berish, tovushlarni aniqlash va turli tovushlarni ajratish uchun dasturlardan foydalanish kabi xizmatlarni taklif etmoqda. Ko'zi ojiz bo'lgan 43 million, o'rta va og'ir darajada ko'rish qobiliyati zaif bo'lgan 295 million va ko'rish qobiliyati yengil darajada zaif bo'lgan 258 million insonlar uchun SI yuz ifodalari va imo-ishoralarni ifodalab berish, shuningdek tasvirlar, atrof-muhit va masofani aniqroq tasvirlab berish orqali insonlar o'rtasida o'zaro muloqot sifatini oshirishda katta hissa qo'shmoqda. Texnologiyaning ushbu yutuqlari izolyatsiya tuyg'usini kamaytirishga, inson qobiliyatlarini takomillashtirish va mustaqil bo'lishni rag'batlantirishga va shu orqali oila farovonligini oshirishda katta ahamiyatga ega.

**Xulosa.**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sun'iy intellekt texnologiyalari nogiron farzandi bor oilalarning farovonligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlash va jamiyatga integratsiyalash jarayonida inqilobiy imkoniyatlar ochmoqda U nafaqat ma'lumotlarni tez va aniq tahlil qilish, balki har bir oila uchun mos yechimlarni taklif qilish imkoniyatini yaratmoqda. Kelgusida bu sohada keng ko'lamli raqamli platformalar, davlat siyosatiga integratsiyalashgan monitoring tizimlari yaratish dolzarb bo'lib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Андреевкова, Н.В. Сравнительный анализ удовлетворенностью жизнью и определяющих ее факторов // Мониторинг общественного мнения [Текст] / Андреевкова Н.В. – 2010. - №5. - С.189-215.
2. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Darslik.T.:Fan va texnologiya 2007. -200 b.
3. Куликов, Л.В. Факторы психологического благополучия личности / Л. В. Куликов, М. С. Дмитриева, М. Ю. Долина, О. В. Иванов, М. А. Розанова, Т. Г. Тимошенко // Теоретические и прикладные вопросы 89 психологии: Материалы Юбилейной конференции —Ананьевские чтения – 97л. – Вып.3. – Ч.1. - СПб., 1997. – С. 342-350.
4. <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/blog/suniy-intellekt-inqilobi-nogironligi-bor-shaxslar-inklyuziyasi-uchun-olamshumul-imkoniyatmi>